

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish salohiyati tahlil qilindi

// 08.08.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/innovatsion-loyihalarni-amalga-oshirish-salohiyati-tahlil-qilindi>



Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, xususan, kimyo sanoatida innovatsiya va resurslarni maqbullashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda yuqori talabga ega va istiqbolli texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish borasida amaliy harakatlar izchil davom ettirilmoqda.

Shu maqsadda, "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining Innovatsiya va yangi texnologiyalarni joriy etish bo'limi mutaxassislari tomonidan "Ammofos-Maxam" aksiyadorlik jamiyatiga amaliy tashrif uyuشتirildi.



Tashrif doirasida korxonaning laboratoriya imkoniyatlari o'rganilib, uning yangi innovatsion loyihalar doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish salohiyati tahlil qilindi.

Mutaxassislar korxonaning ilmiy tahlil ishlarini mustaqil ravishda bajarish qobiliyatiga ega ekanligini qayd etib, kelgusida ko'proq innovatsion loyihalarni joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratishdi.



Tashrif doirasida, shuningdek, "Ammofos"-2 sexi faoliyati ham ko'zdan kechirilib, ushbu ishlab chiqarish maydonida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yangi loyihalar yuzasidan fikr almashildi.

Shu bilan birga, "Ammofos-Maxam" AJ hududida joylashgan, kuniga 200 tonna sulfat kislota ishlab chiqarish quvvatiga ega "ALMALYK SULPHURIC ACID" MCHJda ham mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan yaqindan tanishildi.

Bunday amaliy uchrashuv va tahlillar kimyo sanoati korxonalarida innovatsion yutuqlarni keng joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar turini kengaytirishga xizmat qiladi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati